



**O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari
hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'rtasida
o'zaro hamkorlik to'g'risida
MEMORANDUM**

5335 / 25

2024 йил 12 ноябрь

Toshkent 2024

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari
hamda Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi o‘rtasida o‘zaro
hamkorlik to‘g‘risida**

MEMORANDUM

Ushbu memorandum O‘zbekiston Respublikasi DXX Chegara qo‘shinlari nomidan, qo‘mondon S.E. Xusanov, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi nomidan, Markaz rahbari O.A.Xasanov birgalikda keyingi o‘rinlarda – Tomonlar deb ataluvchilar, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, shuningdek sohaga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va tamoyillariga asoslangan holda xodim, ishchi va xizmatchilar, shuningdek, “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi o‘quvchi-yoshlari o‘rtasida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini ta‘minlashning barcha yo‘nalishlarida o‘zaro hamkorlikni belgilab beradi.

Bunda, tomonlarning teng huquqlardan foydalanishi va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi o‘zaro kelishuv asosida ta‘minlanadi.

Hamkorlikning maqsadi

1. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari o‘zaro hamkorlikda Chegara qo‘shinlari xodim, ishchi va xizmatchilari, tizimda mavjud bo‘lgan ta‘lim muassasi o‘quvchilarining ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyatini doimiy ravishda yuksaltirib borish, shu orqali har qanday g‘oyaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan “G‘oyaviy jangchi”larni tayyorlashdan iborat.

Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari

2. Tomonlar o‘z vakolatlaridan kelib chiqib, quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlikni tashkil etadilar:

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish;

“Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyida olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy va targ‘ibot tadbirlarini samarali tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

dunyoda ro'y berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat" va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish;

xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash borasidagi dasturlarni hayotga tatbiq etish;

jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan tahdidlarni oldini olishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

Chegara qo'shinlarining xodim, ishchi va xizmatchilari, tizimda mavjud bo'lgan ta'lim muassasi o'quvchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzini va dunyoqarashni shakllantirish, ularda g'oyaviy hamda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni yanada kuchaytirish;

Chegara qo'shinlarining xodim, ishchi va xizmatchilari, tizimda mavjud bo'lgan ta'lim muassasasi o'quvchilari o'rtasida ijodkor ziyolilar, teatr va kino aktyorlari hamda estrada xonandalari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar hamda psixologik muloqotlar tashkil etish.

3. DXX Chegara qo'shinlari "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyining 2024-2025 o'quv yili uchun o'quvchilarni "G'oyaviy jangchi" sifatida tayyorlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar kompleks dasturi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Hamkorlikni amalga oshirish tartibi

4. Mazkur Memorandumda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tomonlar hamkorlikni quyidagi tartibda amalga oshiradilar:

tomonlar vakolatiga kiruvchi masalalar hamda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan belgilangan tartibda o'zaro axborot almashuvi, shu jumladan elektron axborot almashuvini yo'lga qo'yish;

o'zaro hamkorlik masalalari bo'yicha uchrashuvlar o'tkazish, maslahatlashuvlarni amalga oshirish hamda boshqa maqsadli tadbirlarni tashkillashtirish;

manzilli rejalar ishlab chiqish maqsadida, ishchi guruhlar tuzish va uning doirasida faoliyat yuritish;

seminarlar, davra suhbatlari, konferensiyalar va boshqa targ'ibot-tashviqot tadbirlarini samarali tashkillashtirish;

hamkorlikda o'tkazilayotgan tadbirlarning monitoringini amalga oshirish, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar kiritish;

hamkorlik yo'nalishlaridan kelib chiqib, tomonlarning kelishuviga ko'ra qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni belgilash.

5. Ushbu Memorandum asosida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish muddatlari va shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi.

Tomonlar Memorandumni qo'llash yuzasidan o'zaro kelishilgan vaqtlarda maslahatlashuvlar o'tkazishlari, shuningdek hamkorlikdagi faoliyatni muvofiqlashtirib borish maqsadida, chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlashlari, hamkorlikni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslarni belgilashlari mumkin.

6. Tomonlar o'z faoliyatlari xususiyatlaridan kelib chiqib, ushbu Memorandum asosida chora-tadbirlarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartib va qoidalarga amal qiladilar.

7. Tomonlar ushbu Memorandum asosida o'zaro foydalanish uchun bir-birlariga taqdim etgan axborot va ma'lumotlardan quyidagilarga amal qilishlari lozim:

axborotni qabul qilgan tomon undan faqatgina o'z faoliyatida maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

axborotni qabul qilgan tomon uni taqdim etgan tomonning yozma rozilgisiz axborotni uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik;

mazkur Memorandum o'z kuchini yo'qotishidan qat'i nazar, tomonlar mazkur qoidalarga rioya etish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

8. Tomonlar ushbu Memorandumda nazarda tutilgan vazifalarni bajarish uchun sarflanadigan xarajatlarni o'z mablag'lari, homiylik, xayriya va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiradilar.

Yakunlovchi qoidalar

9. Ushbu Memorandumga tomonlarning o'zaro yozma kelishuvi asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Tomonlar o'zaro kelishgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda ushbu Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadigan va tomonlar belgilagan kundan boshlab kuchga kiradigan qo'shimcha kelishuv shaklida rasmiylashtiriladi.

Memorandumning sharhlanishi yoki qo'llanilishi bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasida maslahatlashuv, hamjihatlik va muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

10. Memorandumning amal qilish muddati uch (3) yil deb belgilanadi.

Mazkur modda qoidalaridan qat'iy nazar, tomonlarning har biri boshqa tomonni mazkur Memorandum amal qilishini tugatish niyati borligi to'g'risida istagan vaqtda, bu niyatni amalga oshirish sanasidan kamida bir (1) oy ilgari yozma ravishda xabardor qilib, uning amal qilinishini tugatishi mumkin.

11. Mazkur Memorandumning tugatilishi, uning tugatilishi sanasidan avvalroq kelib chiqqan yoki unga asoslangan tomonlarning huquq va majburiyatlariga ta'sir etmasligi lozim.

Mazkur Memorandum Toshkent shahrida 2024 yil "___" noyabr kuni ikki (2) asl nusxada davlat tilida tuzildi va imzolangan kundan kuchga kiradi.

Yuqoridagilarni tasdiqlab, mazkur Memorandum vakolatli imzo chekuvchilar tomonidan imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi
DXR Raisi o'rinbosari - Chegara
qo'shinlari qo'mondoni



S.E. Xusanov

2024 yil "12" noyabr

Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi rahbari



O.A. Xasanov

2024 yil "12" noyabr

[Handwritten signature]

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik
xizmati Chegara qo'shinlari
12 HQ95pb 2024-yil 5335 -sonli
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining
12 HQ95pb 2024-yil 25 -sonli
Memorandumiga 1-ilova

**“Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyining 2024/2025 - o'quv yili uchun o'quvchilarni
“G'oyaviy jangchi” sifatida tayyorlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar
KOMPLEKS DASTURI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
1. Ilmiy-ma'rifiy dunyoqarashini rivojlantirish yo'nalishi				
1.	O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, buyuk ajdodlarimizning milliy va madaniy merosini keng targ'ib qilish maqsadida barcha guruhlar kesimida <i>“prime-time”</i> mashg'ulotlar o'tkazish	1. Hamkor tashkilotlar tomonidan tashkiliy-ijodiy guruh shakllantirish. 2. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan metodologiya (hikmatli so'zlar to'plami, videoroliklar, ma'ruza matni, v.h.k.) yaratish. 3. Tayyorlangan metodologiyadan barcha guruhlarda darsning tashkiliy qismida foydalanish.	Har chorakda bir marta Doimiy Doimiy	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
2.	Harbiy-akademik letsiyning o'quvchilari o'rtasida “Men sevgan kitob” mavzusida kitobxonlik mutolaasi tanlovini o'tkazish.	1. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlarini shakllantirish. 2. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tanlov nizomini ishlab chiqish. 3. Tanlovni yuqori saviyada o'tkazish 4. G'olib va sovrindorlarni munosib taqdirlashni tashkil etish.	2025-yil fevral	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
3.	Harbiy-akademik letsiyning o'quvchilarida shaxsiy samaradorlik ko'rsatgichlarini rivojlantirish maqsadida pedagog-o'qituvchilar bilan hamkorlikda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sadoqat tuyg'ulari o'z ichiga olgan tezis va maqolalar yozish va respublika nashrlarida chop etish.	1. Pedagog-o'qituvchilar, ziyolilardan iborat badiiy kengash tuzish. 2. Maqolalar va tezislar qabul qilish tartibini ishlab chiqish. 3. Maqola va tezislarni chop etish. 4. Respublika nashrlarida chiqarilgan maqola va tezislarni letsiyning elektron axborot uskunasida (infokioska) e'lon qilish.	Doimiy	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
4.	Litsey o'quvchilarida ekstremizm, aqidaparastlik, axborot xurujlari va yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirish maqsadida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ajdodlarimizning ma'naviy merosi asosida "Milliy qadriyatlar sayli" shoiri ostida davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish.	1. Saylni tashkil etish uchun tashkiliy guruh shakllantirish. 2. Sayl doirasida o'tkaziladigan 1 oylik ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 3. "Milliy qadriyatlar sayli" shoiri ostida davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish. 4. O'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni respublika va mahalliy OAV larda keng yoritish.	2025-yil mart	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
5.	Harbiy-akademik letsiyning o'quvchilarida liderlik qobiliyatlarini shakllantirish, notiqlik mahoratini rivojlantirish maqsadida "Munozara-debat" klubini tashkil etish.	1. O'quvchilardan iborat "Munozara-debat" klubini tashkil etish. 2. Klub a'zolari ro'yxatini shakllantirish. 3. O'tkazish reja-grafigini tasdiqlash. 4. "Munozara-debat" klubini muntazam o'tkazib borilishini ta'minlash.	2024-yil dekabr O'quv yili davomida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
6.	O'quvchilarda boy tariximiz va madaniyatimizni keng targ'ib qilish maqsadida “Kinokarvon” loyihasini amalga oshirish.	1. “Kinokarvon” loyihasini reja-grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Loyiha doirasida o'quvchilar uchun kinolar namoyishini tashkil etish. 3. Loyiha doirasida taqdim etilgan kinolar asosida o'quvchilar tomonidan sahna ko'rinishlar (<i>o'zbek, rus, ingliz</i>) tashkil etish. 4. Tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	O'quv yili davomida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
2. Huquqiy-madaniy yo'nalish				
7.	O'quvchilarda huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida “Huquqiy davlatdan – ijtimoiy adolat sari” tamoyili asosida huquq oyligini tashkil etish.	1. Oylik doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning “Dolzarb 30” kunlik reja-grafigini ishlab chiqish. 2. Oylik doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ko'tarinki ruhda o'tkazish. 3. Tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	2024-yil dekabr	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
8.	O'quvchilar ongida boy tariximiz, milliy qadriyat va an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ajdodlarimizning madaniy meroslarini keng targ'ib qilish maqsadida “Ma'rifat tour” loyihasi amalga oshirish.	1. Loyiha doirasida tashrif buyuriladigan manzillar ro'yxatini (<i>tarixiy obidalar, manzilgohlar, teatrlar,</i>) hamda reja-grafigini shakllantirish. 2. Reja-grafik asosida loyihani yo'lga qo'yish. 3. Loyiha doirasida tashkil etigan tashriflarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	O'quv yili davomida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
9.	O'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida mamlakatimiz hamda xalqaro miqyosda yuz berayotgan voqea-hodisalarni uzluksiz ravishda namoyish etilishini ta'minlash.	1. Efirga uzatiladigan voqea-hodislarni ko'rish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqish. 2. Guruh komandirlari tomonidan ishlab chiqilgan reja-grafik asosida o'quvchilarni jalb etish. 3. Namoyish etilgan voqea-hodisalarni chuqur o'ganish va daxldorlik hissini paydo qilish uchun viktorinalar tashkil etish.	O'quv yili davomida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
10.	Harbiy-akademik litsey o'quvchilari o'rtasida "Zakovat" intellektual musobaqasini o'tkazish, hududiy va respublika bosqichiga tayyorlash.	1. Ishchi guruh va grafik ishlab chiqish. 2. "Zakovat" intellektual musobaqasini dastlabki saralash bosqichini tashkil etish. 3. "Zakovat" intellektual musobaqasini muassasa bosqichini ko'tarinki ruhda o'tkazish. 4. Saralangan jamoani hududiy va respublika bosqichiga tayyorlash	Reja-grafik asosida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
11.	Yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish maqsadida litseyning o'quvchilarini keng jalb etgan holda "Muqaddas burch" shiori ostida vatanparvarlik festivalini o'tkazish.	1. Festivalni tashkil etish bo'yicha dastur ishlab chiqish. 2. Festivalni tashkil etish bo'yicha reja-grafik ishlab chiqish. 3. "Ma'rifat" targ'ibotchilar ro'yxatini shakllantirish. 4. Festivalni yuqori saviyada tashkil etish.	2024-yil yanvar	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
3. Shaxsiy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish yo'nalishi				
12.	Harbiy-akademik litsey o'quvchilarini kasbiy-ruhiy holatining barqarorligini taminlash maqsadida psixologik treninglar tashkil etish.	1. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda mutaxassislar ro'yxatini shakllantirish. 2. Guruhlar kesimida treninglar grafigini ishlab chiqish. 3. Treninglar tashkil etish. 4. Olingan xulosalardan tahliliy ma'lumotlar tayyorlash. 5. Tahlillarga ko'ra salbiy natija ko'rsatgan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash.	Reja-grafik asosida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
13.	Harbiy-akademik litsey tamomlagan sobiq bitiruvchilarning hayoti va faoliyati, o'z o'rnini topishida yaqindan ko'maklashish maqsadida monitoring guruhini shakllantirish va faoliyatini yo'lga qo'yish.	1. Monitoring ishchi guruhini shakllantirish. 2. Sobiq bitiruvchilarni doimiy ro'yxatini tuzish. 3. Maslahat guruhini shakllantirish va faoliyatini yo'lga qo'yish.	Doimiy	DXX Chegara qo'shinlari
14.	O'quvchilarda shukronalik hissini shakllantirish hamda yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishlarini ta'minlash maqsadida nogironlik uylariga olib borish, ular bilan suhbatlar, uchrashuvlarni tashkil etish	1. Loyiha doirasida tashrif buyuriladigan manzillar ro'yxatini hamda reja-grafigini shakllantirish. 2. Reja-grafik asosida loyihani yo'lga qo'yish. 3. Loyiha doirasida tashkil etigan tashriflarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	Reja-grafik asosida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
4. Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi				
15.	O'z kasbining ustasi bo'lgan hamda qahramonlik ko'rsatayotgan harbiy xizmatchilarning hayotiy tajribasini o'rganish va harbiylik kasbiga muhabbat uyg'otish maqsadida uchrashuvlar, davra suhbatlari, seminarlar tashkil etish.	1. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda targ'ibotchilar ro'yxatini shakllantirish. 2. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar grafigini ishlab chiqish. 3. Tadbirlar tashkil etish. 4. O'tkazilgan tadbirlarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	Reja-grafik asosida	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
16.	O'quvchilarda vatanga sadoqat, mardlik, jasorat tuyg'ularini shakllantirish, harbiy xizmatchilar hayoti, harbiy texnika, jangovar qurol-aslahaga ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida harbiy bo'linmalarga amaliy tashriflarni tashkil etish.	1. Tashrif buyuradigan harbiy bo'linmalarning ro'yxatini shakllantirish. 2. Amaliy tashriflarni tashkil etish. 3. O'tkazilgan tadbirlarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	Reja-grafik asosida	DXX Chegara qo'shinlari
17.	O'quvchilarni aqlan yetuk, ruhan barkamol, jismonan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida sport musobaqalarini tashkil etish.	1. Sport tugaraklariga qatnashuvchi o'quvchilarning ro'yxatini shakllantirish. 2. Sport musobaqalari reja-grafigini ishlab chiqish. 3. Sport musobaqalarini muntazam tashkil etish. 4. O'tkazilgan sport tadbirlarni keng jamoatchilik va OAV da yoritish.	Doimiy	DXX Chegara qo'shinlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi

Izoh: DXX ChQ va RMMM topshiriq hamda tavsiyalariga ko'ra, mazkur kompleks dasturga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

DXX ChQ qo'mondonining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari

C. Kurbanov

2024 yil "12" noyabr

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari

B. Alimov

2024 yil "___" noyabr